

O'ZBEKISTONNING ASOSIY TRANSPORT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI.

Andijon Davlat pedagogika Instituti

Tabiiy Fanlar fakulteti Geografiya va Iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi talabasi

Xolboboyev Asliddin G'ulom o'g'li

Abstract. To date, along with many developing sectors in our country, the transport sector is developing rapidly. Air, water and land transport, which are its main branches, are gaining importance in the development of our country's economy. This article describes in detail the main types of transport in our country.

Key words. Transport, air, pipeline, water, road transport, Tashkent, "Uzbekistan airways".

Аннотация. На сегодняшний день, наряду со многими развивающимися отраслями в нашей стране, быстро развивается транспортная сфера. Воздушный, водный и наземный транспорт, являющиеся его основными отраслями, приобретают все большее значение в развитии экономики нашей страны. В данной статье подробно описаны основные виды транспорта в нашей стране.

Ключевые слова. Транспорт, воздушный, трубопроводный, водный, автомобильный транспорт, Ташкент, "Узбекистон хаво йуллари".

Anotasiya. Bugungi kunga kelib yurtimizda ko'plab rivojlanayotgan tarmoqlar qatori transport sohasi ham jadal su'ratda taraqqiy etmoqda. Uning asosiy tarmoqlari bo'lgan havo, suv, quruqlik transportlari mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada yurtimiz transportining asosiy turlari haqida batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar. Transport, havo, quvur, suv, avtomobil transporti, Toshkent, "O'zbekiston havo yo'llari".

Kirish. O'zbekistonda umum foydalanadigan yuk va yo'lovchilar tashuvchi transportning barcha turlari – temir yo'l, avtomobil, aviatsiya – havo yo'llari, shahar elektr transporti (tramvay, tro'lleybus, metropoliten), daryo, quvur transporti, osma

arqon transporti rivoj topgan. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng transportning xalq xo'jaligiga va aholiga xizmat ko'rsatishini tubdan yaxshilash va transportning boshqarish tizimini takomillashtirish maqsadida "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi (1991-yil 28-yanvar), "O'zbekiston avtomobil transporti" davlat aksionerlik korporatsiyasi (1994 -yil 7-noyabr) va boshqa idoralar tashkil etildi. Mamlakatimiz transport korxonalarini davlat ishtirokidagi aksionerlik kompaniyalari, korporatsiyalari, ochiq turdagi aksionerlik, ma'suliyati cheklangan jamiyatlarga, jamoa korxonalariga aylantirildi. Respublikamizning avtotransport vositalarining bir qismi (avtobus, yuk va yengil mashinalar) jamoa xo'jaliklari, fuqarolarning mulki hisoblanadi.

Asosiy qism. Temir yo'l transporti. Xalq xo'jaligida temir yo'l transportining yo'lovchilar hamda yuk tashishdagi salmog'i katta. Yurtimizda temir yo'l transportining ahamiyati juda katta. Yurtimiz hududi asosan tekisliklardan iborat bo'lgani uchun Temir yo'l transporti iqlimiy sharoitlar va yil fasllari qanday bo'lishiga qaramay hamma vaqt ishlayveradi. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda temir yo'llarning umumiy uzunligi 7 ming km dan ortadi, shu jumladan umumiy foydalanilmaydigan (asosan sanoat korxonalariga tortilgan) temir yo'llarning uzunligi 3 ming km ni tashkil etadi. 353,6 km temir yo'llar elektrlashtirilgan. O'zbekistonda dastlabki temir yo'l 1886 – 1888 yillarda Forob stansiyasidan Samarqandgacha o'tkazilgan (bu yo'l G'arbiy Kaspiy temir yo'li nomi bilan 1880-yil noyabrdan 1886-yil dekabrgacha qurib bitkazilgan Krasnovodsk-Chorjuy temir yo'lining davomi). 1888-yil may oyida Amudaryo orqali 2,7 km uzunlikdagi yog'och ko'priki bitkazilishi bilan temir yo'l Samarqandgacha yotqizilib, poyezdlar qatnovi boshlandi. Keyinchalik bu yo'l 1895-1897-yillarda Ursatevsk stansiyasidan Qo'qongacha davom ettirildi. 1899-yili temir yo'l Toshkentgacha yetkazildi. 1906-yil yanvarda Toshkent – Orenburg temir yo'li ishga tushirildi. 1907 yilda Qoqon – Buxoro, 1913-1916 yillarda Farg'ona temir yo'lining Qo'qon – Namangan – Andijon qismi, 1913-1915-yillarda Kogon - Amudaryo stansiyasi va Qarshi – Kitob shaxobchalari qurildi. 1917-yilga qadar hozirgi O'zbekiston yerida temir yo'llarning uzunligi 1,1 ming km edi. Mustaqillikka yerishgandan so'ng O'zbekistonda temir yo'llar qurilishi yangi pallaga kirdi. Qo'ng'iro't-Beynov (410 km), Navoiy-Uchquduq-Nukus, Sulton Uvays-Nukus yo'nalishlarida temir yo'llarni ta'mirlash va elektrlashtirish boshlandi. O'rganch-

Beruniy elektrlashtirilgan yangi temir yo'li qurilmoqda. 233 km li G'uzor-Boysun-Qumqurg'on temir yo'li qurilishi bu hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Mamlakatimiz bir qator qo'shni davlatlardagi xalqaro yo'llar qurilishida ham faol ishtirok etib kelmoqda. Jumladan, mamlakat mustaqilligi va iqtisodiyoti uchun ulkan ahamiyatga ega bo'lgan Yevropa va Osiyo mamlakatlarini tutashtiradigan Transosiyo magistrali (Istambul-Toshkent-Almati-Pekin) qurilishida ishtirok etmoqda. Qozog'istonda "Drujba" stansiyasi, Turkmanistonda Tajan-Saraxs va yeronda Saraxs-Mashxad qismlari qurilib foydalanishga topshirildi (1996 -yil, 13-may) va yo'lda poyezdlar qatnovi boshlandi.

Temir yo'l transporti ko'rsatkichlari (mln.t.)

№		2014	2015	2016	2017	2018	2019
1	Tashilgan yuk <i>mln.t</i>	162,4	164,5	169,2	168,8	178,8	180,5
2	Yuk aylanmasi <i>mln. m-km</i>	1943,3	1948,0	1937,3	1899,3	1988,9	2065,9
3	Lokomotivlar	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,4
4	Yuk tashuvchi vagonlar	6,3	6,2	6,3	6,4	6,3	6,1

1-jadval.

Aynan 133 km li Tajan-Saraxs yo'lini qurishda O'zbekistonlik quruvchilarning hissasi katta bo'ldi. O'zbekiston temir yo'llari kelajakda bu katta yo'lning markaziy bo'g'ini bo'lib qoladi. Bu yo'ldan Buxoro-Beynov orqali Yevropaga, Tajan-Saraxs orqali Yaqin sharq mamlakatlariga chiqish mumkin. "O'zbekiston temir yo'llari" 50 mingdan ortiq turli tiplardagi yuk vagoni va Germaniyada tayyorlangan refrejeratorlarga, 1450 yo'lovchilar tashiladigan vagonga ega. Umumiy foydalanadigan temir yo'l transporti taraqqiyotining asosiy ko'rsatkichlari.

Elektrlashtirilgan temiryo'llar. (km)

1980	1990	2016	2017	2018	2019
198	296	1400	1700	1800	1800

2-jadval.

Temir yo'llarni elektrlashtirish dastlab 1970-yilda Toshkent – Yangiyo'l uchastkasida boshlandi. Keyinchalik Xo'jakent-Sirdaryo liniyasi (148 km)da elektr poyezdlar qatnovi yo'lga qo'yildi. 2000-yilda elektrlashgan uchastkalar 353,6 km ni tashkil etdi. Germaniya bilan hamkorlikda Toshkent teplovoz tayyorlash zavodida yo'lovchilar vagonlarini keltirilgan tayyor qismlardan yig'ish, Yaponiya bilan hamkorlikda Toshkenda vagon ta'mirlash zavodi qurib ishga tushirildi (16.03.2001 y). Lakomotivlar saroyini yangilash loyixasi qiymati 60 mln AQSH dollarga teng bo'lgan mazkur loyixaning afzalligi shundaki, poyezdlarni o'rtacha og'irligi 17,3% ga oshadi, lakomotivlarni ta'mirlash sarfi 25% ga, elektr quvvati 15% ga tejaladi. Navoiy-Uchquduq-Nukus yo'nalishi qurilish qiymati 222,8 mln AQSH dollarga teng..

Avtomobil transporti. Respublika xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari va mamlakat aholisining ehtiyojlarini qondirish darajasida rivojlangan avtomobil transportiga ega. Mamlakatimiz rivojlangan yo'l xo'jaligi va zamonaviy talablarga javob beradigan xalqaro, Respublika, maxalliy ahamiyatga ega bo'lgan avtomobil yo'llariga ega. Yo'l xo'jalik tarmoqlarida 34,5 ming ishchi va injener-tehnika xodim band (1999). 1992-yil 3-iyunda "Avtomobil yo'llari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi.

1992-yil fevralda O'zbekiston avtomobil yo'llarini qurish va undan foydalanish davlat-aksionerlik konserni (Uzavtoyo'l) tuzildi (1996-1997-yillarda vazirlik). Konsern tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyalar avtomobil yo'llari boshqarmalari, 162 ta tuman avtomobil yo'llari boshqarmalari, 532 ta yo'llarni asrash va ulardan foydalanish bo'limlari, "O'zyo'lloyiqa" respublika yo'l va inshootlar qurish, qayta qurish va ta'mirlash bo'yicha loyiqa – qidiruv instituti, ko'priklar temir beton qurilmalari zavodi va boshqa korxonalar bor. Vatan urushidan keyingi davrda ayniqsa so'nggi yillarda avtomobil transporti tez sur'atlar bilan taraqqiy etdi. Bir qancha beton yo'llar Toshkent-Olmaliq yo'li, Farg'ona xalqa, Zarafshon va Qoraqalpog'iston traktlari va boshqa yo'llar qurildi. Bu yo'llar O'zbekiston Respublikasining ko'pgina viloyatlari va sanoat markazlarini kesib utadi. Bu trakt hozir Do'shanbe shahrigacha olib borilgan. Farg'ona xalqa yo'li vodiyning barcha viloyatlari va yirik shaharlarini bir-biri bilan

bog'lab, katta iqtisodiy aloqalarni amalga oshiradi. Zarafshon trakti Samarqand, Buxoro viloyatlarini bir-biri bilan bog'lashdan tashqari Turkmaniston bilan iqtisodiy aloqalarni amalga oshirish uchun xizmat qilmoqda. Qoraqalpog'iston trakti muxtor respublika iqtisodiyotini ko'tarishda muhim ro'l o'ynamoqda. Bu traktning To'rtko'l shahridan boshlanib Amudaryoning o'ng oqimi bo'ylab Nukus shahri orqali Taxtako'prikka borishi maqsadga muvofiq bo'ldi. Buxoro-Gazli-Saxaxino avtomagistrali Qizilqum cho'lini kesib o'tadi. Bu yo'l respublika qarako'lichiligini rivojlantirishda katta xizmat qilmoqda. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng ayniqsa so'nggi yillarda avtomobil transporti tez sur'atlar bilan taraqqiy etdi. Bir qancha beton yo'llar- Toshkent-Olmaliq yo'li, Farg'ona xalqa, Zarafshon va Qoraqalpog'iston traktlari va boshqa yo'llar qurildi. Bu yo'llar O'zbekiston Respublikasining ko'pgina viloyatlari va sanoat markazlarini kesib o'tadi. Bu trakt hozir Dushanbe shahrigacha olib borilgan. Farg'ona xalqa yo'li vodiyning barcha viloyatlari va yirik shaharlarini bir-biri bilan bog'lab, katta iqtisodiy aloqalarni amalga oshiradi. Zarafshon trakti Samarqand, Buxoro viloyatlarini bir-biri bilan bog'lashdan tashqari Turkmaniston bilan iqtisodiy aloqalarni amalga oshirish uchun xizmat qilmoqda. Qoraqalpog'iston trakti muxtor respublika iqtisodiyotini ko'tarishda muhim ro'l o'ynamoqda. Bu traktning To'rtko'l shahridan boshlanib Amudaryoning ung oqimi bo'ylab Nukus shahri orqali Taxtako'prikka borishi maqsadga muvofiq bo'ldi. Buxoro-Gazli-Saxaxino avtomagistrali Qizilqum cho'lini kesib o'tadi. Bu yo'l respublika qarako'lichiligini rivojlantirishda katta xizmat qilmoqda. Toshkent-Qo'qon yo'li Qamchiq dovoni orqali poytaxtni qisqa masofada Farg'ona vodiysi bilan bog'laydi. Respublika mustaqillikka yerishgandan so'ng mavjud avtomobil yo'llarini xalqaro andozalarga moslash, yo'llarni saqlash va ta'mirlash, yangi barpo etilayotgan sanoat rayonlarini xalqaro magistrallar bilan bog'laydigan yo'llar qurilishi masalasiga e'tibor kuchaydi. Bu borada O'zbekiston Xitoy va Pokistonga chiqish imkoniyatini beradigan Termiz-Xirot-Karochi avtomobil yo'li qurilishida va ularni qayta qurishda o'z ulishi bilan qatnashmoqda. Respublikaning o'zida Farg'ona vodiysi bilan Toshkent voxasini Qamchiq dovoni orqali bog'laydigan yirik avtomobil yo'li ta'mirlandi va ishga tushdi (2000 y) hamda Qo'ng'iro't-Beynov avtomagistrali qurilishi jadal olib borilmoqda (1996 yilda boshlangan).

Avtomobil Transportida yuk tashish (mln.t.)

№		2014	2015	2016	2017	2018	2019
1	Avtotransportda						
2	Umumfoydalanadigan	419,1	440,1	256,9	257,9	289,3	329,3
3	Xususiy	413,2	438,3	163,1	165,9	169,4	172,6
4	Iqtisodiyotni boshqa tarmoqlarida	908,3	959,7	745,9	755,2	812,9	848,4
	jami	1327,4	1399,8	1002,8	1013,1	1102,2	1177,7

3-jadval. Avtomobil yo'llarining jami uzunligi 89 ming km dan ortiq. Shundan 74 ming km qattiq qoplamali yo'llardir. Farg'ona vodiysi va Toshkent viloyatida qattiq qoplamali avtomobil yo'llari ancha ko'p. Kelajakda avtomobil transportining ravnaqi "Buyuk ipak yo'li"ning tiklanishi, ishga tushishi bilan bog'liq. O'zbekiston bu yo'l qurilishida faol ishtirok etmoqda (Andijon-O'sh-Ergashtom-Qashqar).

Havo transporti. Bu transport turi transportning eng qimmat va shu bilan birga eng tez xarakatlanadigan hamda joy relefiga kam bog'liq bo'lgan turidir. Yo'lovchi tashishda, ayniqsa uzoq masofaga, xorijga tashishda, bironta ham transport havo transporti o'rnini bosa olmaydi. Xavo transporti ayniqsa shoshilinch va qimmatbaho yuklarni tashishda katta ahamiyatga ega. O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishida va iqtisodiy aloqalarni o'sishida havo transportining ro'li ortib bormoqda. Respublikamiz endilikda MDX ni yuzdan ortiq shahar va aholi manzilgoxlari bilan havo transporti orqali bog'langan. Toshkent aeroporti Sharqning havo darvozalaridan biridir. Toshkentdan MDX dan tashqari London, Manchester, Frankfurt-mayn, Tel-Aviv, Jidda, Istanbul, Karachi, Dehli, Kuala-Lumpur, Bangkok, Pekin, Afina, Amsterdam, Seul va Nyu-York shaharlariga muntazam avia reyslar tashkil etilgan. "O'zbekiston havo yo'llari" aviakompaniyasi xilma-xil tipdagi havo kemalariga ega. Qishloq xo'jalik ishlariga mo'ljallangan AN-2, maxalliy (respublika) havo yo'llarida qatnaydigan AN-24, YaK-40, xalqaro klassdagi IL-76, IL-62, IL-86, TU-154, A-310 kabi samoletlar, vertolet parkida MI-2, MI-8, KA-26 kabi mashinalar bor. Respublikada AN-2 samoliyeti, MI-2, MI-8, KA-26 vertoletlaridan iborat maxsus maqsadlardagi aviatsiya parki qishloq xo'jaligi, tibbiy sanitariya xizmati, meteoro'logiya, geologiya-qidiruv, gaz sanoati va boshqa soxalarda unumli ishlatilmoqda. 1996-yildan "Boing-757" va "Boing-

764” samoletlari, maxalliy havo yo’llarida IL-114 samoletlaridan foydalanishga kirishildi. “O’zbekiston havo yo’llari” milliy avia kompaniyasi tarkibida 12 zamonaviy aeroport bor (Toshkent, Termiz, O’rganch, Farg’ona, Qarshi, Qo’qon shaharlarida). Toshkent, Samarqand aeroportlari xalqaro maqomga ega.

Suv transporti. Bu transport temir yo’l va avtomobil transportlaridan farq qilib, asosan jixozlanishi uchun uncha ko’p xarajat talab qilmaydigan tabiiy suv yo’llaridan foydalanadi. U yoqilg’ini ko’p ishlatmaydi va katta xajmdagi yuklarni tashish tannarxi pastroq. Hozirgi zamon kemalarining tezligi yuk tashuvchi poyezdlarning o’rtacha tezligiga barobar keladi. Suv transporti dengiz va daryo transportiga bo’linadi va O’zbekiston transport tizimida suv transportining ahamiyati katta emas. Suv transporti asosan Amudaryo kemachiligidan iborat. 1974- yilda kema va qayiqlar qatnaydigan suv yo’nalishlarining umumiy uzunligi 887 km edi. 1980- yilga kelib, O’zbekistonda suv yo’llarini umumiy uzunligi 2800 km ga yetdi. Amudaryo-Panj (Tojikston) bandargoxidan Muynokka qadar paroxodlar qatnovi amalga oshiriladi. Daryo suvining kamayishi va Oro’l dengizining qurishi natijasida suv yo’llari keskin qisqardi. 1991-yil mayda O’zbekiston Respublikasida joylashgan daryo floti bo’linmalarini boshqarish tartibi qayta tashkil etildi. O’rta Osiyo paroxodchiligini O’zbekistondagi bo’linmalari negizida “Termiz daryo porti”, “Xorazm daryo floti”, “Qoraqalpog’iston daryo floti” ishlab chiqarish birlashmalari tashkil etildi. Respublika daryo portida 150 ga yaqin teploxod, shuningdek barjalar, suzuvchi ekskavatorlar, port kranlari va boshqalar bor. Hozirda suv yo’llarini umumiy uzunligi 1000 km ga yaqin. Xalq xo’jaligi yuklari asosan Termiz-Xayraton (Afgoniston), Xujayli-Beruniy, Koratov-Taxiyatosh yo’nalishlarida tashiladi

Quvur transporti. O’zbekistonda birinchi 20 km uzunlikdagi nefteprovod 1908-yil Chimyon neft konida Vannovsk (hoz. Oltiariq) neftni qayta ishlash zavodiga tortilgan. Keyinchalik Farg’ona vodiysi, Surxondaryo viloyatida yangi neft konlari ochilishi bilan transportning bu turi jadal rivojlantirildi. Neft konlaridan Farg’ona va Oltiariq neftni qayta ishlash zavodlariga umumiy uzunligi 228,5 km bo’lgan nefteprovodlar qurildi. Respublikamiz janubida – Surxondaryo viloyatida 1947-yil Lalmikor-Qumqurg’on va 1969-yil Amudaryo-Amu-Zang liniyalari qurildi (umumiy uzunligi 40 km).

Qashqadaryoda yangi neft konlari ochilganidan keyin 1977-yil G'arbiy-Toshlaq-Qashqadaryo stansiyasi (3,3 km), Shimoliy O'rta bo'lak-Oltinugurt zavodi (72 km) nefteprovodlari ishga tushirildi.

Gaz quvurlarida yuk tashish (mln.t.)

	2014	2015	2016	2017	2018
Gaz	36,7	36,0	36,5	37,8	
Neft	0,1	0,1	0,1	0,1	
jami	36,8	36,1	36,6	37,9	

4-jadval.

O'zbekistonning barcha viloyat markazlariga gaz quvur yo'llari o'tkazilgan. Gaz quvurlari ichida Jarqoq-Buxoro-Samarqand-Toshkent, Muborak-Toshkent trassalari juda muhimdir. O'zbekistondan Uralga (2100 km), Moskvaga (3500 km) o'tkazilgan gaz quvurlari diametrining kattaligi va uzunligi jihatidan dunyoda oldingi o'rinlardan birini egallaydi. Qishloq joylarni gaz va toza ichimlik suvi bilan ta'minlashni amalga oshirish natijasida quvur yo'llari uzunligi to'xtovsiz ortib bormoqda. Yangi-yangi yo'llar loyixalashtirilmoqda. Masalan, Qamchik dovoni orqali Angren-Xonobod neft quvur yo'li loyixalashtirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. <https://www.elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/13160-o-zbekistonning-transport-majmui-va-tashqi-iqtisodiy-aloqalari-geografiyasi>
2. Abirqulov K.N. Iqtisodiy geografiya (Darslik) –T.: TDIU, 2004
3. Asanov, M. Nabixonov, I. Safarov. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jugrofiyasi: Pedagogika Oliy o'quv yurtlarining talabalari uchun ukuv qo'llanmasi.-T.: O'qituvchi, 1994.
4. Salimov X., Xatamov A., Mamajonov M. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. O'quv qo'llanma. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2008.
5. Тўхлиев Н. Ўзбекистон иқтисодиёти асослари. / Н. Тўхлиев, Қ.Ҳақбердиев, Ш. Эрматов, Н. Холматов. – Т.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Давлат илмий нашриёти, 2006.
6. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 9-10-tom. -T.:2006.